



The concept of "cognitive activity" and its pedagogical-psychological significance

Gulnoza VAISOVA¹

Khorezm Regional Center of Pedagogical Excellence

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

broad approach,
intensive approach,
cognitive process,
cognitive ability,
pedagogical phenomenon,
bilaterally interconnected
process,
activity,
activation.

ABSTRACT

This article examines the concept of cognitive activity and highlights the importance of addressing pedagogical and psychological challenges in studying ways and methods to develop cognitive activity in preschool children. It emphasizes that cognitive activity is a socially significant quality of an individual and underscores the importance of its formation in preschool children through various types of activities.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp103-106>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

“Kognitiv faoliyat” tushunchasi, uning pedagogik-psixologik ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

keng yo'l,
intensiv yo'l,
kognitiv jarayon,
kognitiv qobiliyat,
pedagogik hodisa,
ikki tomonlama o'zaro
bog'liq jarayon,
faollik,
faollashtirish.

Mazkur maqolada kognitiv faoliyat tushunchasi va maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish yo'llari va usullarini o'rganishdagi muammolarni pedagogik va psixologik jihatdan hal qilish lozimligi va kognitiv faoliyat shaxsning ijtimoiy ahamiyatli fazilati ekanligi, maktabgacha yoshdagi bolalarning turli faoliyat turlarida shakllanish ahamiyati yoritilgan.

¹ Head of Department, Preschool Education Coordination Department, Khorezm Regional Center of Pedagogical Excellence.

Понятие «когнитивная деятельность», её педагогическое и психологическое значение

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

широкий путь,
интенсивный путь,
когнитивный процесс,
когнитивная способность,
педагогический феномен,
двусторонний
взаимообусловленный
процесс,
активность,
активизация.

В данной статье освещается необходимость педагогического и психологического решения проблем в изучении понятия когнитивной деятельности, а также путей и методов развития когнитивной деятельности детей дошкольного возраста. Подчеркивается, что когнитивная деятельность является социально значимым качеством личности, и рассматривается важность ее формирования у детей дошкольного возраста в различных видах деятельности.

Maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning eng mas'uliyatli, bola ta'lim va tarbiya olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'limning muhim vazifalari sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qib-o'rganishga bo'lgan intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, ularning tafakkurini, mustaqil fikrlashini, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirish yo'llari va usullarini o'rganish muammosi pedagogikaning muhim muammolaridan biridir. Atrof-olam, dunyoni anglashga qiziqish, noma'lum narsani bilish istagi – asosan o'qitish va faoliyat samaradorligini belgilaydigan ustuvor xususiyatdir. Kognitiv harakatlarni tashkil etish bolada allaqachon shakllangan ehtiyojlarga, shu jumladan kattalar bilan muloqot qilish zarurligiga asoslangan bo'lishi kerak (harakatlar, amallar, qarorlar, fikrlarni tasdiqlash).

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda kognitiv (bilish) faoliyatini rivojlantirish muammosini hal qilishning ikki yo'li mavjud: keng va intensiv. Ularning ikkalasi ham bitta yakuniy maqsadga ega: bilimli, axloqli, ijtimoiy faol, qobiliyatli shaxsni tarbiyalash. Biroq, maqsadga erishishning yondashuvlari turlicha. Keng yo'l, birinchi navbatda, bolalarga yetkazilgan bilim hajmini oshirish orqali amalga oshiriladi. Intensiv yo'l subyektiv, shaxsiy manfaatdorlik pozitsiyasini shakllantirishga asoslanadi va bu ta'lim dasturlari tarkibidagi o'zgarishlarni va o'qitish uslublarini intensivlashtirishni (rivojlanish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim) nazarda tutadi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosining yana bir dolzarbligi shundaki, insonning tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasi faqat uning faoliyati va faolligi tufayli amalga oshadi, bu esa o'z navbatida mustaqillik va tashabbusni shakllantirishga yordam beradi. Kognitiv faoliyat bolaning faolligini, uning bilimga bo'lgan ishtiyoqini, noma'lumdan ma'lumni aniqlashga bo'lgan harakatini ta'minlaydi. Ilmiy adabiyotlarda "bilish faoliyati" tushunchasi turli talqinlarda ifoda etiladi. Kognitivlik bolaning mustaqil faoliyatga intilishini anglatadi, ijtimoiy tajribani, insoniyat tomonidan to'plangan faoliyat usullarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kognitiv faoliyatini rivojlantirish muammosi bolalar pedagogikasi, psixologiyasining yildan-yilga ortib borayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bolalarning atrof-olam bilan o'zaro munosabati, muloqoti

uning faolligi va faoliyati kognitiv jarayonlar orqali amalga oshadi. Kognitiv faoliyat bolalarning kognitiv qobiliyatlarini, aqliy fazilatlarini, ularning tashabbuskorligi va individualligining ajralmas qismidir. Kognitiv faoliyatning rivojlantirish mazmunini aniqlash avvalambor **“kognitiv faoliyat”, “kognitiv jarayon” va “kognitiv qobiliyat”** kabi tayanch tushunchalarni tahlil qilish zaruratini tug'diradi. Bu borada quyida batafsil to'xtalib o'tiladi:

Kognitiv faoliyat. Kognitiv faoliyat shaxsning ijtimoiy ahamiyatli fazilati bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning turli faoliyat turlarida shakllanadi. Shaxs faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi, shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabatiga qarab, faoliyat turli darajaga, turlicha xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Faoliyat – bu shaxsning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u shaxsning faoliyatga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi: tayyorlik holati, mustaqil faoliyatga intilish, uni amalga oshirish sifati, maqsadga erishishning maqbul usullarini tanlash. Kognitiv faoliyat katta maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim, ko'nikma, ichki qat'iyat va ma'lum bilimlarni to'plash, kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo'lgan qiziqishini aks ettiradi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosi o'qituvchilar va psixologlarning turli xil asarlarida ko'rib chiqilgan. Ya.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy, D. Lok, Jan-Jak Russo kognitiv faoliyatni maktabgacha yoshdagi bolalarning o'rganishga bo'lgan tabiiy istagi sifatida belgilagan. M.A. Xolodnaya, T.M. Golovastikova, S.M. Vishnyakova, G.I. Sukina va boshqalar kognitiv faoliyatning xususiyatlarini va uni maktabgacha yoshdagi bolalarda qanday faollashtirishni tadqiq etganlar.

“Kognitiv faoliyat”ga doir tadqiqotlarda uning “pedagogik hodisa” yoki “ikki tomonlama o'zaro bog'liq jarayon” kabi tavsiflari mavjud. “Kognitiv faoliyat”ni subyektiv va obyektiv jihatdan ko'rib chiqish mumkin. Subyektiv jihatdan qaraganda, tarbiyachi-pedagog bolaning kognitiv faoliyatini tashkil etishdagi alohida pedagogik faoliyatlarning natijasi sifatida qaraladi. Obyektiv jihatdan qaraganda, bolaning o'zi tashkil etgan, atrof-olamni, o'zini va o'zgalarni anglash jarayonidir. Ikkala jihat ham tadqiqotimiz maqsadi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga, bir-birini to'ldiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi xususiyatga ega. Didaktik materiallar ishlab chiqishda ham mazkur jihatni hisobga olish katta ahamiyatga ega.

Bizningcha, tarbiyachining faoliyati (subyektiv) bolaning mustaqil kognitiv faoliyatdan (obyektiv) o'z-o'zini shakllantirish, ma'lum tamoyillarga ustuvorlik berishlik jarayoniga o'tkazishga qaratilishi lozim. Bu esa didaktik materiallar ishlab chiqishda bolalarni nafaqat mashg'ulotda biror bir kognitiv faoliyatga yo'naltirish, balki mashg'ulotlardan tashqarida ham izlanuvchanligi, qiziquvchanligi, ijodkorligini faollashtirishni hisobga olishni taqozo etadi. Ko'plab pedagogik-psixologik tadqiqotlarda kognitiv faoliyatni birinchi jihatiga e'tibor qaratilgan. O'tgan asrning 50–70 yillardagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarda “kognitiv faoliyat” bolaning pozitsiyasi sifatida tavsiflanadi.

E.V. Korotaeva va A.N. Nefedovalar o'z izlanishlarida “kognitiv” tushunchasi boshqa tushunchalar bilan mazmunan bir xil ma'noda ishlatilishiga e'tibor qaratib, bu tushunchaning “faollik”, “faollashtirish”, “o'rganish jarayoniga munosabat” kabi tavsiflanayotganiga e'tibor qaratadi. Pedagogik nuqtai nazardan olib qaraganda, ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchining kognitiv faoliyatini qanday faollashtirish va rivojlantirish tushuniladi.

G.I. Shukina kognitiv faoliyatni ta'lim oluvchining "o'ziga xos holatini va uning faoliyatga bo'lgan munosabatini" ifodalashini ta'kidlab, "doimiy ravishda o'quv jarayonlarida shakllanib boruvchi shaxsiy ta'lim" ekanligiga urg'u beradi. Kognitiv faoliyatning manbai kognitiv qiziqish hisoblanadi. Qiziqish – shaxsning biror bir narsaga faol hissiy-kognitiv munosabati bo'lib, u shaxsning barcha psixik jarayonlarini faollashtiradi va doimiy izlanishga chorlaydi. Kognitiv faoliyatning o'ziga xos jihatlari quyidagilar: faoliyatga o'z-o'zidan qo'shilish, izlanish xarakteriga egaligi, faoliyat mazmuni va usullarini tashabbuskorlik orqali tanlash, faollikni keltirib chiqaruvchi sharoitlarni erkin tanlash, kognitiv faoliyatga tayyorlik ko'rish. Bular bolalarning atrof-muhit va dunyoni bilish, tadqiq qilishga bo'lgan faolligini belgilab beruvchi kognitiv qiziqishga asoslanadi.

F.I. Xarlamov esa o'z kitobida kognitiv faoliyatga ta'rif ber turib, ta'lim oluvchining "atrof olamni intensiv ravishda tahlil qilish va sintez qilish faoliyati va ilmiy bilim tizimlarini egallab borish"i ekanligiga urg'u beradi. Bu xususidagi fikrlarini davom ettirib, ta'lim oluvchining "bilim olishga intilishi uning aqliy mehnati hisoblanib, bu bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ixtiyoriy amalga oshiriladigan faol harakat" deb izohlagan. Tarbiyachi mashg'ulot mazmunini yetkazishda bolalarni mantiqiy va izchillikni tushunishga yo'naltirishi, ularni faollashtirishi, asosiy va muhim tushunchalarni ajratish va ularni alohida ta'kidlashi katta rol o'ynaydi. Bolalarda mashg'ulot mavzusiga doir savollarni shakllantirishga undash ulardagi bilimlarning "mavjud holati"ni aniqlashga hamda qiziqish sohalarini belgilab olishga yordam beradi. Tarbiyachining mashg'ulot mazmunini professional ravishda taqdim qila olishi, bolalarni qiziqitira olishi katta rol o'ynasa, o'quv materiallari, topshiriqlar va o'yinlar bolalarni kognitiv faolligini oshiruvchi ko'plab turtki beruvchi jihatlarni o'zida aks ettirishi lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asqarova D.Q Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. – T.: Navro'z nashriyoti, 2020. – 139 b.
2. Когнитивная психология в контексте проблем современного образования. Коллективная монография. Под редакцией А.А.Вербицкого, Е.Б.Пучковой. – Москва, МГПУ, 2017. – 330 с.;
3. Лифинцева Н.И. К.Д.Ушинский о формах взаимного соотнесения и гармонии веры и научного знания в образовании // Вестник ПСТГУ. Серия 4: Педагогика. Психология. 2008.
4. Холодная М.А. Психология интеллекта: парадоксы исследования. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – С. 264.;
5. Головастикова Т.М. Как сделать учение увлекательным? // Начальная школа. – 2006, №2. – С. 30-34.;
6. Вишнякова С.М. Профессиональное образование: Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика. – Москва, НМЦ СПО, 1999. – 538 с.